



NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 24-may

95-5-73-Q/25

Navbahor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-maydagi “Favqulodda holat joriy etilgan hududda uy-joy fondini tiklash, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash va kompensatsiya to‘lash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 293-sonli, Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 20-maydagi 114-5-0-Q/25 qarori ijrosini ta‘minlash to‘grisida

O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 19- fevraldagi PQ-75-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-maydagi “Favqulodda holat joriy etilgan hududda uy-joy fondini tiklash, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash va kompensatsiya to‘lash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 293-sonli va viloyat hokimining 2025-yil 20-maydagi 114-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2.Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Favqulodda holat joriy etilgan hududda uy-joy fondini tiklash, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash va kompensatsiya to‘lash ishlarini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

favqulodda choralar va vaqtincha cheklovlar oqibatida yetkazilgan zararni aniqlash hamda baholash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish;

favqulodda holatning amal qilish davrida favqulodda holat joriy etilgan hududda jabrlanganlarga kompensatsiya to‘lashga mablag‘lar ajratish;

favqulodda choralar va vaqtincha cheklovlar oqibatida jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash.

3.Favqulodda joriy etilgan hududda uy-joy fondini tiklash, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash va kompensatsiya to‘lash ishlarini tashkil etishda Nizom talablariga qat’iy amal qilinishi ta’minlansin.

4.Vazirlar Mahkamasining qarori bilan quyidagilar:

favqulodda holat joriy etilgan hududda yaroqsiz holga kelgan mol-mulk obektlari, zarar ko‘rgan va buzilgan muhandislik va transport infratuzilmalarini tiklash hamda nooziq-ovqat mahsulotlari to‘plamini yaratish chorolari Favqulodda holat rejimini ta’minlash bo‘yicha davlat komissiyasi va (yoki) hudud komendantining taqdimnomalariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar (tuman va shahar) hokimlarining qarorlari yoki Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida qoplanishi;

O‘zbekiston Respublikasining byudjet qonunchiligiga muvofiq favqulodda choralar va vaqtincha cheklovlar oqibatida jabrlangan aholiga va tashkilotlarga yetkazilgan zarar Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari yoki O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar qoplanishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Jumaboyev, tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i N.Ashurov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.O‘roqov